

Kamola SHARIPOVA,
Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi
Tel: +998916701119
E-mail: ksharipova582@gmail.com

Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddiqov tagrizi asosida

THE ROLE OF SOCIAL INSTITUTIONS IN ENSURING GENDER EQUALITY IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

The article talks about the role of social institutions in ensuring gender equality in the new Uzbekistan. In order to reveal the content of the article, legal documents and sources related to the field were used.

Key words: new Uzbekistan, gender equality, social institutions, women.

YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA IJTIMOIY INSTITUTLARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada yangi O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashda ijtimoiy institutlarning o'rni haqida so'z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida qonunchilik hujjatlari va sohaga oid manbalardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: yangi O'zbekiston, gender tengligi, ijtimoiy institutlar, xotin-qizlar.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье говорится о роли социальных институтов в обеспечении гендерного равенства в новом Узбекистане. Для раскрытия содержания статьи использованы юридические документы и источники, относящиеся к данной области.

Ключевые слова: новый Узбекистан, гендерное равенство, социальные институты, женщины.

Bugungi kunda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi o'rnini yanada yuqori darajaga ko'tarish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Buning uchun xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligini ta'minlashga doir dolzarb masalalarga oid tegishlar qarorlar qabul qilish zarur ko'rindi. Shu nuqtai nazardan, gender tenglikka erishish Strategiyasiga asosan, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, gender tenglikka erishish bir qator dasturlar yo'nalişlarida amalga oshiriladi. Davlat xizmatida, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy, saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imokoniylarini ta'minlash, shular jumlasidandir. Shuningdek, Strategiyada gender tenglikni ta'minlash tadbirlarini hisobga olgan holda, davlat dasturlarini budgetlashtirish va moliyalashtirish ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, yuqori va qo'y়i tizimdag'i davlat organlaridagi rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyoti kengaytirib boriladi.

Gender statistikasi yuritishini takomillashtirishda respublika va hududlar kesimida genderga oid vaziyatni tahlil qilish hamda uning monitoringini yuritish maqsadida xotin-qizlar va erkaklarning nojadvaliy mehnat bozori sektoridagi, shuningdek hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ishtiroki, ularning davlat tomonidan kafolatlangan imkoniyatlardan foydalanish holati yuzasidan statistik ma'lumotlarni tizimli yuritishda qonunda ko'zda tutilgan vakolatli mansabdar shaxs vazifalarini bajarilishini inobatga olish zarur.

Fuqarolik jamiyatida demokratik institutlarning mavjudligi va uning mustahkamlanib borilishi – fuqarolar siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishning hal qiluvchi shartidir. Bunday fuqarolik jamiyatasi siyosiy tizimi shaxs siyosiy-huquqiy ongi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag'batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo'lsa, inson siyosiy hayotda, fuqarolik jamiyatasi qurilishida shunchalik faol ishtirok etadi.

Demokratik jamiyatning muhim tamoyillaridan biri nodavlat notijorat tashkilotlarining mavjudligi va faoliyat ko'rsatishi bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatasi institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yogha chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda [1].

Bugungi kunda O'zbekistonda yaratilgan imkoniyatlar nodavlat notijorat tashkilotlarining son va sifat jihatidan o'sishiga olib kelmoqda. Mamlakatimizda ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining umumiy soni 400 tani tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va bu jarayonda "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatni sari" tamoyilining hayotga keng tatbiq etilishida ijtimoiy sheriklik omili muhim ahamiyatga ega. Chunki, takomillashgan fuqarolik jamiyatasi institutlari mamlakatda qonun ustuvorligi va demokratik boshqaruv tizimini ta'minlashda, fuqarolarning siyosiyhuquqiy madaniyatini va ularning faol fuqarolik pozitsiyalarining shakllanishida hamda muvaffaqiyatlari gender siyosatini amalga oshirishda o'ziga xos o'ringa ega.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining mamlakat taraqqiyotidagi o'rni xususida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanimi alohida ta'kidlash joiz" [2], deya ta'kidlashi bejizga emas.

Olimlar fuqarolik jamiyatini tadqiq qilishda davlatning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda uchinchi sektor bilan munosabatlari, fuqarolik jamiyatasi va demokratiya, fuqarolik jamiyatasi va bozor iqtisodiyoti munosabati (uning analogi sifatida), ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda fuqaro faolligi masalasi, fuqarolik jamiyatida individ erkinligi, ixtiyorilik va ko'ngillilik nuqtai naazaridan, fuqarolik jamiyatining institutsional jihatlari, uni liberalizm g'oyasi orqali talqin qilish, shuningdek, turli sohalarda uchinchi sektor tashkilotlar faoliyatini kengaytirish va boshqalar bilan bog'lab o'rganiladi.

Fuqarolik jamiyatasi va uning institutlari faoliyatini isloh qilish va takomillashtirishga oid fikrlarni MDH mamlakatlari siyosatshunos, jamiyatshunos, huquqshunos olimlari L.I.Yakobson, I.V.Mersianova, YE.L.Ryabova, YE.V.Galkina4 tadqiqotlarida uchratish mumkin. Ushbu olimlar zamonaiv davorda fuqarolik jamiyatining institutsionallashuvi, davlat va fuqarolik jamiyatasi institutlari munosabati, postsotsiolistik davlatlarda fuqarolik jamiyatasi, kelajakdag'i fuqarolik jamiyatining

loyihasi, zamonaviy davrda fuqarolik jamiyatni institutlari taraqqiyoti, yangi asrdagi siyosiy jarayonlarning transformatsiyasi fuqarolik jamiyatni institutlashuviga ta'siri kabi masalalarini tadqiq qilganlar.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatni va uning institutlarini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar mustaqillikning ilk davridan boshlab amalga oshirila boshlandi. Xususan, fuqarolik jamiyatni ta'limoti, uning tarixiy rivojlanishi, institutsiyallar hamda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tamoyillariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi. Siyosatshunos olimlardan A.Mo'minov, N.Jo'rayev, I.Ergashev, U.Idirov, M.Qirg'izboyev, R.Jumayev, V.Qo'chqorov, G.Jamalova, M.To'raqulov, J.Mavlonov[6] va boshqalarning tadqiqotlari fuqarolik jamiyatni nazariyasi, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish bosqichlari, uning o'ziga xos xususiyatlari, fuqarolik jamiyatining davlat siyosiy tizimi bilan bog'liq jihatlari hamda davlat va jamiyat boshqaruvin demokratlashtirishda siyosiy liderning o'rni masalalari tahlil qilingan.

Shuningdek, huquqshunos olimlar X.Odilqoriyev, Z.Islomov, X.Mamatov, Sh.Nazarov, U.Fazilov va Sh.Yaqubovlarning ilmiy ishlardida O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatni qurishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, huquqiy madaniyat va uning fuqarolik jamiyatni shakllantirishdagi roli, davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlari, fuqarolik jamiyatining rivojida jamoat tashkilotlarining nazariy va huquqiy masalalari tadqiq etilgan.

Qolaversa, fuqarolik jamiyatni institutlari ijtimoiy-falsafiy jihatlarini A.Qodirov, F.Musayev, A.O'tamuradov, A.Huseynova, D.Sadullayeva kabi faylasuflarning tadqiqotlari mustaqillik yillarda O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qurishning falsafiy-huquqiy asoslar, davlat va jamiyat hayotini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirishning ijtimoiy-siyosiy asoslar, jamiyat demokratlashushi sharoitida fuqarolarning huquqiy madaniyatini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ayollar faolligini oshirish muammolari tahliliq bag'ishlangan[12].

Fuqarolik jamiyatni konsepsiyasi va ijtimoiy hayotimizda fuqarolik jamiyatni institutlarining o'rni borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, bugungi kunda Yangilanayotgan O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlarini aynan gender siyosatiga muvofiqlashadir va samaradorligini oshirishdagi omillari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Fuqarolik jamiyatni institutlarining mamlakat ijtimoiy hayotidagi ishtiroti, jumladan gender tengligini ta'minlash va rivojlantirishga oid nazariyalarni siyosiy fanlar nuqtai nazaridan o'rganish, fuqarolik jamiyatni shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlash hamda Taraqqiyot strategiyasi doirasida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni qurilishi jarayonlarini ilmiy tahlil etish lozim, ular quyidagicha:

- Ijtimoiy-siyosiy fanlarda fuqarolik jamiyatni va gender siyosati kategoriyalari bo'yicha dastlabki qarashlar, ularning rivojlanish bosqichlari, bu boradagi ilmiy nazariy tadqiqotlarni tizimlashtirish;
- Fuqarolik jamiyatni institutlari rivojining tarixiy-siyosiy asoslarini tadqiq qilish;
- zamonaviy G'arb va Sharq mamlakatlari tajribasida gender tengligi va fuqarolik jamiyatni institutlari rivojlanish masalalarni tahlil qilish;
- Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish.
- Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash[1].
- Jamiyat ijtimoiy modernizatsiyasi va mamlakat taraqqiyotida fuqarolik jamiyatni institutlarining o'rni va rolini ko'rsatib o'tish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi negizida fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatini isloh qilishning istiqbollariga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqish.

O'zbekiston xotin-qizlarining nodavlat, notijorat tashkilotlari (NNT) jamiyatda gender tenglik g'oyalarini amalga oshirishda ancha ishlarni qilishgan va tajriba to'plashda davom etib kelishmoqda. Muayyan loyihalarni amalga oshirish, jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish, xotin-qizlar huquqlarini ommalashtirish va tarqatish yo'li bilan ular chinakam fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishiga ko'maklashmoqda. NNT paydo bo'lishi bilan yangi ijtimoiy o'zaro munosabatlari shakllandi va xotin-qizlar harakati yuzaga keldi, NNT tuzish tashabbuskorlari ham xotin-qizlarning o'zi bo'ldi. Bu tashkilotlar xotin-qizlar ahollining muayyan muammolari va ehtiyojlarini o'rganish yuzasidan katta ishlarni amalga oshirdi.

Xotin-qizlar NNT ishning yangi shakllari va usullaridan foydalanshmoqda, ular o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va yangi ish joylarini yaratish, turli xil ijtimoiy muammolarni hal etish, turli manbalardan, shu jumladan chet el rivojlanish fondlaridan moliyaviy madad olish imkoniyatlariga ega. Ularning faoliyati xotin-qizlarning huquqlarini yana ham aniqroq anglashga, bunday huquqlarning bузilishini, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni qoralashga ko'maklashadi. Ular xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilar ekanlar, ularning muammolarini hal etishda yordam beradilar, ayollarga ularning huquqlari va bu huquqlarini himoya qilish usullari to'g'risida ma'lumotlar beradilar, ko'pincha ilg'or o'zgarishlarga turki beradilar, demokratik jamiyatni qaror toptirish va rivojlantirish jarayonlarida xotin-qizlarning rollini oshirishga katta hissa qo'shadilar[4].

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar teng huquqliligining kafolatlari, jamiyat hayotidagi o'mi, davlat boshqaruva sohasidagi faoliyatlar, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlar faolligini oshirishga doir bosqichlarni o'rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- jamiyatda shakllangan "ayollarga xos kasblar" tushinchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish;
- uy vazifalari, bola tarbiyalash kasbiy faoliyatga to'siq bo'lmasligi uchun masofadan turib ishslash faoliyatini yo'lga qo'yish;
- nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali xotin-qizlarda ijodkorlikni rag'batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o'z qobiliyatlarini yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishiga imkon yaratish;
- huquqiy ta'limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo'lga qo'yish, siyosiy karera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o'rinnari ustida yangicha yondashuv;
- oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklar o'ttasidagi munosabatlarni kelishuv asosida amalga oshirish, erkak va ayol muammoli vaziyatlarda tenglik prinsipini o'zaro hurmat va bir-birini tushinish tarzida amalga oshirish;
- nasl, farzand tarbiyasi masalalarida tenglikka rioxha qilgan holda, ayloning jamiyatdagi o'mini topishda, kasb-hunar masalalarida qo'llab-quvvatlash;

- nohaqlikka uchragan, zo'ravonlik qurbaniga aylangan xotin-qizlar bilan davlat, jamiyat hamkorligini yanada kuchaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tizimli mexanizmini ishlab chiqish kabilardir.

ADABIYOTLAR

1. Жамалова Г.Г. Сиёсий ва ҳуқукий маданиятни юксалтириш - жамият тараққиётининг асоси. “Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari”. Volume 2 | Special ISSUE 23. 2022. – Б. 976-984.
2. Ш.Мирзиёев. Ҳалқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б. 102.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022—2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
4. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. Сиёсий рисола. –Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2017;
5. Ахмедшина Ф. Мустақиллик шароитида Ўзбекистоннинг гендер муаммолари // Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётига кириш илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2007. – Б. 414.
6. Жўраев Н.Қ. Ўзбекистонда янгиланишлар концепциясининг яратилиши ва амалиётта қўлланилиши. Сиёс.фан. док. ... дисс. – Т., 2001;
7. Эргашев И. Политика государства независимого Узбекистана на селе: теория и практика. Дисс. ... док.полит. наук. – Т.: 1995;
8. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. –Т.: Ўзбекистон, 2010; Жумаев Р. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. –Т.: Шарқ, 1998;
9. Жамалова Г.Ғ. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти курилишининг сиёсий масалалари. сиёс.фан.ном. ... дисс. –Т., 2006.;
10. Жўрақулов Ф.Н. Фуқаролик жамиятини куриш шароитида давлат ижроия ҳокимияти тизимини модернизациялаш. сиёс.фан.док. ... дисс. –Т., 2018;
11. Мавлонов.Ж.Ё. Повышение роли институтов гражданского общества в обеспечении эффективного диалога государства с народом. Дисс. ... док.полит.наук. –Т., 2018.
12. Шотурсунова Н. Ўзбекистонда гендер сиёсати самарадорлигини оширишда фуқаролик жамияти институтлари иштирокининг тенденциялари. // Оиласий-хукукий муносабатларда гендер тенглиги: конференция материаллари тўплами. – Тошкент: «Mahalla va Oila nashriyoti», 2021. – Б. 17-20.